

TA'LIM JARAYONIDA TARBIYANING AHAMIYATI

Xoshimova Dilorom Anvarovna

QDPI o'qituvchisi

Annotatsiya: Mamlakatimiz istiqbolining dastlabki kunlaridanoq, buyuk ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizni, xalqimizning yaratgan boy madaniy merosini avaylab-asrash va keyingi avlodga yetkazish oldimizda turgan muhim masalalardan biridir. Ma'lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodni qanday ta'lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog'liq. Ushbu maqolada yosh avlodga ta'lim berishda tarbiyaning ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, ta'lim, siyosiy, madaniy, urf-odat, marosim, tarix, adabiyot.

Hozirgi davrda mamlakatimizda tarbiyaviy ishlarning mazmuni barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Respublikada sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tamonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik hujjatlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqilgan. Birgina - Ta'lim to'g'risidagi Qonunning qabul qilinishi yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, istiqbolli vazifalarni hal etishga qodir barkamol avlodni tarbiyalashga yo'naltirilganligini keltirish kifoya. Tarbiya - yosh avlodni har tamonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir. Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo'lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi. Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar majmuini anglatadi. Tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo'libgina qolmay, uning yetakchi g'oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar orqali singdirilgan mafkurani ham o'z ichiga oladi. Zero, tarbiya ta'limga nisbatan kengroq bo'lgan tushunchadir. Bunday tarbiyaning oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi. Shu jihatdan tarbiya ta'lim olish bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Ta'lim – tarbiya orqali shaxda ezgu ma'naviy – axloqiy sifatlar tashkil topadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: —Albatta, ta'lim – tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan muhim omildir. Binobarin, ta'lim – tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi..... har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rish kerak. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim.

Tarbiyaviy ishlarning ta'sirchanligi, samaradorligi ko'p jihatdan xalqimizning boy milliy, ma'naviy merosining tarixiy ildizlarini o'rganishga bog'liq. Har bir xalqning ijtimoiy-ma'naviy hayotida azaliy urf-odat, marosim, an'ana tarzida o'ziga xos bir qadriyat meros sifatida namoyon bo'lib, avloddan avlodga yetib keladi. Millatning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni muhimdir. Milliy qadriyat millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan juda ko'p qadriyat shakllarini qamrab oladi: «Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, millatning tili, madaniyati,



tarixi, urf-odatları, anʻanalari, jamiki moddiy va maʻnaviy boyliklari, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlaridir»

Tarbiyaviy ish pedagogikadan butun qobiliyatlarni ishga solishga taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bogʻliq va uning davomiyligidir. Yuqoridagi qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida oʻquvchilar turli qoʻllanmalar, asboblar, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni oʻrganadilar, oʻz-oʻzini tekshirish uchun turli maʼlumot va tayanch materiallarini jalb etish koʻnikmalarini egallaydilar.

Oʻquvchilar odatda hayotdan va badiiy adabiyotdan olingan aniq misollar bilan toʻliq hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Ularga axloq mezonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tabiiy boyliklari, ajoyib, mehnatkash kishilari, tarix, adabiyot, sanʼat haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot, radio, televidenie, gazeta va jurnallardagi maqolalar ham qimmatli material boʻladi. Suhbat ham, hikoya ham oʻquvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan soʻzlar orqali oʻzbek tilida oʻtkazilishi kerak. Eng yaxshisi, suhbat va hikoya mavzusini oʻquvchilarning oʻzlari tanlasin, bunda suhbatning zavqi-shundan taʼminlanadi, oʻquvchilar mavzuga befarq qaramaydilar. Namuna. Oʻquvchilar oʻz atroflaridagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni koʻrishlari va namuna olishlari nihoyatda muhimdir. Oʻqituvchining shaxsan oʻzi namuna boʻlishi, ayniqsa yoshlarga katta taʼsir koʻrsatadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish joizki, insonning boy maʻnaviy-tarixiy jarayonida samarali foydalanish, oʻsib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, xalqparvar, yuksak maʻnaviyatli etib voyaga yetkazish, insoniy fazilatlarini singdirishda tarbiyaviy ishlarni toʻgʻri tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: - maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi; - faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi; - bolalar tarbiyasidagi faoliyatni oʻqituvchi, ota – ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni taʼminlash muhimdir.

Maʼlumki yosh avlodga tarbiya berish jarayonida maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. Oʻquvchilarga tarbiya berish, ularga taʼlim berish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ammo, tarbiyaning oʻz vazifasi, mazmuni, amalga oshirish usul va vositalari mavjud. Oʻqish va tarbiya jarayonining uzviyligi taʼlim muassasalari oldiga qoʻyilgan eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Beruniy ota-onalarga qarata bolaning moʻtadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq gʻazablanishdan, qoʻrqish va hafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni xohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtiriladi. Beruniy bola tarbiyasida irsiyat muhit va tarbiya taʼsirini birdek muhim ekanligini taʼkidlab oʻtgan edi. Beruniy axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda yondoshadi. Axloqiylik yaxshilik va yomonlik oʻrtasidagi kurash natijasida namoyon boʻladi va shakllanadi. Bolaning jismonan sogʻlom, ahloqan pok, mehnatsevar, madaniyatli intellektual salohiyatli boʻlib oʻsishdan jamiyatimiz ham manfaatdordir. Oʻquv tarbiyaviy muassasalarning tarbiya borasidagi ishlari qanchalik yaxshi yoʻlga qoʻyilishidan qatʼiy nazar, tarbiya masalalarini oila hal qiladi. Bogʻcha va maktablar taʼlim bersa va tarbiyalasa, ota-onalar faqat tarbiyalabgina qolmay, ular bilan birga yashaydilar ham. Ota-onalarning farzand uchun fidoyi boʻlishligi oʻzbek millatiga xos boʻlgan ajoyib fazilatdir.

“Agar oila boshligʻi tajribasiz boʻlsa, u oʻz aʼzolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oxir-oqibat u yaxshi ijobiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qoʻshnilarga, mahalla-koʻyga ham yomon taʼsir qilishi mumkin. Oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavqeyidan qatʼiy nazar, ularniig birlamchi vazifasidir”- deb hisoblaydi Ibn Sino. “Ota-ona davlat boshligʻimi yoki oddiy fuqaromi, baribir, u bola tarbiyasi borasida masʼuldir. Davlat boshliqlari, rahbarlar bola tarbiyasi xususida barchaga ibrat boʻlmoqlari lozim”-deb koʻrsatar ekan ota-onaning ijtimoiy mavqeyidan qatʼiy nazar ularning birinchi galdagi vazifalari bola tarbiyasi ekanligini taʼkidlab koʻrsatadi. Ibn Sinoning bola tarbiyasi, tarbiya psixologiyasi va rahbarlarga qoʻygan ushbu talablari oʻsha davrda qanchalik



taraqqiyparvar va zarur bo'lsa, bizning bugungi kunimizda ham u o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Uning fikricha, tarbiyachi, ya'ni ota-ona "nafaqat so'z bilan, balki amalda ham bola ruhiga ta'sir ko'rsatmog'i lozim" ekanligini ta'kidlaydi. Demak, ota-ona bola tarbiyasida nafaqat so'zdan balki amaliy faoliyatda ham o'zi o'rnak bo'lish orqali tarbiyalasa maqsadga muvofiq bo'lishini mutafakkirimiz ta'kidlab o'tganlar. Hozirgi kunda yurtimizda kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy sohalaridagi qo'lga kiritilayotgan yutuqlarimiz, yurtboshimiz tomonidan yoshlarga yaratilayotgan keng ko'lamlı sharoitlar, bularning barchasi bizning ertamiz bo'lgan yoshlarni tarbiyasiga e'tiborli bo'lishimizni talab etadi.

Darhaqiqat, hamma zamonlarda yoshlarning ta'lim-tarbiyasi dolzarb masala bo'lib kelgan. Bugun bizning davrimizda ham yoshlarimizga nihoyatda yuksak e'tibor bilan qaralmoqda. Hukumatimiz tomonidan yoshlarimizga o'qish va mehnat qilish borasida hamma shart-sharoitlar muhayo qilingan. Endigi vazifamiz mana shu g'amxo'rliklarga munosib sa'y-harakatda bo'lishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova va boshqalar "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" Toshkent: "Fan va texnologiyalar. 2007 y.
2. Sh. Shodmonov va M. Axmedova "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" Fan va texnologiya n. Toshkent 2019- yil\
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi.O'quv qo'llanma.T.:O'qituvchi 2010-yil.127-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.13-bet.

